

Kitobxonlik Vositasida Talabalarni Shaxsiy Ijtimoylashtirishning Mavjud Holati Va Konsepsiyasi

Muminova Dilafroʻz Akbaraliyevna¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada kitobxonlik faoliyati, kitobxonlikni tashkil etish yoʻllari, kitobxonlik vositasida talabalarni shaxsiy ijtimoiylashtirishning mavjud holati va konsepsiyasi, shaxsning kitob oʻqishi, kitobxon boʻlishida uni kamolotini taʼminlashga ilm-maʼrifat asoslarini targʻib qilish, ajdodlarimizning kitobga muxabbat uygʻotish boʻyicha olib borgan ishlariga doir maʼlumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: oliy taʼlim, didaktik, vosita, kitobxonlik, metodik, faoliyat, talaba, ilmiy, zamonaviy, tadqiqotchi, shaxs, vatan, pedagog, jamiyat.

“Dunyodagi har qanday xalq yoki davlatning kuch-qudrati, avvalo, uning intellektual salohiyati va maʼnaviyati bilan belgilanadi. Bunday qudrat sababini insoniyat aql-idroki tomonidan kashf etilgan kitob va kutubxonalarning yaratilishida”.

Sh.M.Mirziyoyev.

Oliy taʼlim muassasalarida boʻlajak pedagoglarini tayyorlashda mavjud fanlar mazmuniga kitob va undan foydalanishga oid didaktik materiallarni singdirishni taqozo etadi. Kitobxonlik vositasida talabalarni shaxsiy ijtimoiylashtirishning metodik tizimini ahamiyati jamiyat taraqqiyoti va inson tarbiyasidagi oʻrni yuzasidan turlicha taʼriflar mavjud. Xususan, Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasida kitob ilmiy kategoriya sifatida axborot, gʻoya, obraz va bilimlarni saqlash va tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik kabi turlicha qarashlarni shakllantirish vositasi sifatida taʼriflanadi. Shuningdek, bilimlarni targʻib qilish va tarbiya berish quroli hamda badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyotligi izohlanadi” [9; 616-b.].

Kitobxonlik va ARM xodimlari faoliyati, ARMda raqamli texnologiyalar, interaktiv faoliyatlari masalasiga dunyo miqyosida ahamiyat berishi va kitobxonlik boʻyicha qator bayramlar hamda tadbirlar nishonlanishi orqali yoshlar orasida kitobxonlar aniqlanmoqda. Jumladan, 23-aprel – Butun jahon kitob kuni; 2-aprel – Xalqaro yoshlar kitobi kuni sifida belgilangan; oktyabr oyining toʻrtinchi dushanbasida Xalqaro maktab kutubxonalari kuni nishonlanadi. Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi davlat rahbarlari kengashi tomonidan MDH mamlakatlarida “2008-yil – Adabiyot va mutolaa yili” [7: 644-649-b] deb eʼlon qilingan.

Maʼlumki, kitobxonlik - faoliyat turi hisoblanadi, yaʼni kitob oʻqishni tashkil etish, kitob oʻqish bilan shugʻullanishdir. Bugungi kunda kitob va gazeta jurnallarni oʻqishdan tortib, elektron matnlarni oʻqish ham juda muhim ijtimoiylashuvdir. Shu maʼnoda pedagogika, psixologiya va ijtimoiy sohalarida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarning tarkibiy tuzilmasida dissertantning tanlangan muammoni hal qilishdagi yondashuvini ilgari surishda yetakchi gʻoyalarning amaliyotga mos kelish holatini oʻrganish muhim oʻrin tutadi. Mavjud muammoning dolzarbligini baholash, uni samarali hal qilishga imkon beruvchi omillarni aniqlashda esa tadqiq etilayotgan mavzuning nazariy oʻrganilishi, tegishli yoʻnalishda jamiyat miqyosida olib borilayotgan tizimli ishlar mazmunan va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Bunday ish koʻrish orqali dissertant oʻzining tadqiqotchilik faoliyatini kognitiv, amaliy hamda refleksiv tarzda izchil tashkil etish imkoniyatiga ega boʻladi.

¹ Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b



Kitobxonlik vositasida talabalarni shaxsiy ijtimoiylashtirishning kompetentligini oshirishda, “kitobxonlik targ‘ibi til, tarix, din, millat, vatan, mustaqil va erkin shaxs manfaati nuqtai nazaridan amalga oshirilsagina ko‘zlangan natijaga erishiladi” [3; 165-169-b.]. Zero, psixologik jihatdan kitob o‘qish va kitobxonlik har bir shaxsning kamolotini ta‘minlashga birdek ta‘sir ko‘rsatadi., Shaxsning kitob o‘qishi, kitobxon bo‘lishida darhaqiqat, uning qanday tili, tarixi, dini, milliy mansubligi, qaysi vatanda yashashi ahamiyatli emas. Bunda “mamlakat miqyosida kechayotgan jarayonlarni mulohaza qilish, uni teran anglab yetish, idrok etish bugungi ma‘naviy-intellektual talablar” [2; 152-156-b.] inobatga olinishni taqozo qilinadi. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda tadqiqotning asoslovchi tajriba bosqichida kitob o‘qish va kitobxonlikka bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning amaliy tavsiflari ham talqin etildi. Kitob o‘qish, undan foydalanish va kitobxonlikka milliy munosabat quyidagi ikkita yo‘nalishlar negizida aniqlandi:

1. ijtimoy jamiyatning munosabati;
2. talablarning individual (shaxsiy) munosabati.

Kitob o‘qish va undan foydalanish madaniyati, ya‘ni kitobxonlikka nisbatan jamiyatning munosabati yuzasidan adabiyotshunos olim U.Normatov quyidagilarni ta‘kidlab o‘tadi: “O‘tgan asrning 70-80-yillari bizda kitobxonlik eng avjiga chiqqan palla bo‘lgan edi. O‘sha yillari “Sharq yulduzi”ning adadi yuz ellik, hatto ikki yuz mingga, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” soni bir millionga yaqinlashgan edi. Nash etilgan yangi badiiy asarlarning adadi 60-80 ming atrofiga bo‘lgan. Hatto adabiy-tanqidiy va ma‘rifiy mavzudagi adabiyotlar ham shunga yaqin raqamni ko‘rsatib turgan. Chunonchi, 1986-yil “Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida” nomli to‘plam 60 000 nusxada chop etilgani va u tez kunda kitobxonlar qo‘liga tarqab ketganligi to‘g‘risida manbalar mavjud. 2007-yil adib tavalludining yuz yilligiga bag‘ishlab tayyorlangan “Adabiyotimiz faxri” nomli kitobi bor-yo‘g‘i 1000 nusxada chop etildi, tarqalishi esa hiyla sust kechdi...” [6; 160-b.].

Kitobxonlik vositasida talabalarni shaxsiy ijtimoiylashtirish masalasini pedagogika sohasida kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini, mutolaa infratuzilmasini, kitobxonlik tarixi, zamonaviy tendensiyalari haqida fundamental, amaliy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy jamiyat aholisining turli qatlami, ayniqsa, kitob mutolaasidan birmuncha yiroq bo‘lganlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish strategiyasiga yondoshuvini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan hisoblangan. Ushbu vazifalarni, “bajarish har qanday mutasaddidan katta kuch, izchillik, qat‘iyat va tinimsiz mehnatni talab etadi” [8; 87-b.].

Respublikamizda kitob o‘qish va kitobxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan amaliy harakatlar orasida “Yosh kitobxon” tanlovi alohida o‘rin tutmoqda. Izchil ravishda tashkil etib kelinayotgan mazkur tanlov o‘zining huquqiy asoslariga ega bo‘lib, uning mazmuni, tashkillashtirilishi “Yosh kitobxon” [5; 263-266-b.] tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizomda o‘z ifodasini topgan. Tanlovning maqsadi qadimiy va betakror diyorumizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma‘naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida “kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish” [4; 263-266-b.]-deb belgilangan.

Ilmiy izlanishlar natijalari sifatida tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy g‘oya, ilmiy dalil hamda amaliy-metodik tavsiyalarni tanqidiy o‘rganish, shuningdek, ularning amaliyotga tatbiqini baholash jarayonida yuqori darajada amaliy-metodik qiymatga ega bo‘lishiga qaramay, amaliyotga tadbiri borasida kutilgan samaradorlikka erishilmagani aniqlandi. Buning sabablari o‘rganilganda yoshlar, shu jumladan, oliy o‘quv yurtlarining talabalari o‘rtasida kitob o‘qish, kitobxonlik g‘oyalarini izchil targ‘ib etishga mas‘ul bo‘lgan o‘qituvchi, pedagoglar sohaga oid manbalar bilan yetarlicha tanishish emasliklari, ularga metodik yordam hamda ta‘minot sifatida ularning yagona ma‘lumotlar bazasiga kiritilmaganligi, ayniqsa, muammo bo‘yicha xorijda amalga oshirilgan ilmiy pedagogik va psixologik tadqiqotlar, ularning natijalarini yorituvchi tahliliy davriy bosma yoki elektron nashrlar faoliyatining



yo'lga qo'yilmaganligi kabi holatlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Ayni o'rinda kelgusida bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiqligi, zero, ularning aksi bo'lgan holatlarni qaror toptirish jamiyatda kitob o'qish, kitobxonlik g'oyalarini yanada samarali targ'ib qilish, yoshlarda faol kitobxonlik sifatlarini izchil, samarali rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Klassik va zamonaviy o'zbek adabiyotida shaxsda mustaqillik, mustaqil fikrlash va mavjud vaziyatlar yuzasidan mustaqil ravishda qaror qabul qilish xususiyatlariga ega obrazlarning son jihatdan kamligi. Ko'p hollarda badiiy asarlarda irodaviy xarakter xususiyatlaridan biri bo'lgan – mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish xususiyati hukmdorlar, qo'mondon (lashkarboshi)lar yoki rahbarlar qiyofasidagina aks etadi. Biroq, oddiy aholi, xususan, uning tipik vakillari bo'lgan yoshlar xarakterida mustaqillik xususiyatini ifodalaydigan asarlar deyarli yaratilmagan. Mustaqillik xususiyatiga ega yoshlarning yorqin vakillari bo'lgan badiiy qahramonlarni tarixiy asarlardagina uchratish mumkin. Masalan, Oybekning "Navoiy", Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" kabi romanlari hamda Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi bosh qahramonlari – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi obrazlardagina mustaqil fikrlash va mavjud vaziyatlar yuzasidan qaror qabul qilish qobiliyati namoyon bo'ladi. Bu holat har uch qahramonning davlat arbobi, shoh va sulton bo'lganliklari, ularning tarbiyasi yoshlikdan to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, yurtni ortidan ergashtiruvchi shaxslar sifatida ularda ma'naviy-axloqiy va irodaviy xususiyatlarning rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganligini anglatadi.

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan adabiyot fani o'qituvchilarining yetarli darajada badiiy adabiyotlar vositasida o'zida milliy turmush tarzi va xarakter xususiyatlarini aks ettirgan badiiy asarlardan foydalanish orqali talabalarning ana shunday xususiyatlarni rivojlantirish tajribasiga ega emasliklari. Adabiyot ta'lim amaliyotida uzoq yillardan buyon bir an'anaga rioya qilib kelinmoqda. Bu an'anaga ko'ra har bir mavzu aynan bir qolipda, ya'ni muallifning hayoti, faoliyatiga oid ma'lumotlar, shuningdek, namuna sifatida keltirilgan badiiy asarlar bilan tanishiladi. So'ngra ularda aks etgan voqea-hodisalar, ijobiy va salbiy obrazlar, asar g'oyasi hamda yechimi yuzasidan so'z yuritiladi. Biroq, talabalar tomonidan asarlar mazmunining chuqur tahlil qilinishi, tasvirlanayotgan voqea-hodisani baholash, shaxsiy mulohazalarni bildirish, mualliflarning yutuqlari, mavjud bo'lsa yo'l qo'yilgan xatolar yuzasidan munozaralar tashkil etilmaydi. Bu holat esa talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish qobiliyatining rivojlanmasligiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kitobxonlik vositasida talabalarni shaxsiy ijtimoiylashtirish bu boradagi mavjud ahvoldan, qolaversa, mazkur jarayonning samarali kechishiga xizmat qiladigan omillar, ularning pedagogik-psixologik ta'siridan ham xabardor bo'lishlari zarur.

Kitobxonlik vositasida talabalarni shaxsiy ijtimoiylashtirishning metodik tizimini takomillashtirishga oid muammoning muayyan jihatlari uzoq va yaqin xorijiy davlatlarda mustaqil yo'nalish sifatida o'rganilgan. Xorijiy davlatlarda mazkur yo'nalishlarda bajarilgan ilmiy izlanishlar tahlil etilgan. Oliy ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonlarida talabalarning kitobga bo'lgan hurmat tuyg'usini rivojlantirish, ularda badiiy adabiyotlarga qiziqishni, kitobxonlik vositasida ijtimoiylashuvini ta'minlash maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilgani tavsiflangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. <https://uza.uz/> 20-02-2020.
2. Abdusalomova N. Bolalarni mutolaaga jalb qilish: muammo va yechimlar. // Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxona resurslari. Xalqaro konferensiya materiallari «Central Asia – 2022». – Andijon. 25–27-may, 2022. 152-156 b.
3. Boboxo'jaeva N. O'zbekiston hududida arablar istilosiga qadar vujudga kelgan yozuv, dastlabki kitoblar va kutubxonalar // Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari. Xalqaro konferensiya materiallari. «Central Asia – 2022». – Andijon. 25–27-may, 2022. 165-169 b.



4. Mamadaliyeva O., Qayumov M. “Bir karra 10 barobar cheksiz natija” nomli noan’anaviy kitob targ‘iboti // Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari. Xalqaro konferensiya materiallari «Central Asia – 2022». – Andijon. 25–27-may, 2022. 263-266 b.
5. Mamashukurov O.E. Shaxs kamoloti va kitobxonlik madaniyati // Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 7 (100), часть 1. февраль, 2023 г. – В. 104-106.
6. G‘aniyeva B. Yoshlar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning muammolari // Betger o‘qishlari-2004: Kutubxona resurslaridan faol va ijodiy foydalanish muammolari. Davra suhbatlari to‘plami. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004. 135-137 b.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 4 b.
8. Akbarov O. (2021). Chingiz Aytmatov ijodida adabiyot va pedagogika uyg‘unligining nazariy jihatdan tahlili // II International Scientific and Theoretical Conference. The current state of development of world science: characteristics and features. European Scientific Platform. December 10, 2021. – P. 644-649
9. Эрштейн Л.Б. Запретная теория ценностей: Психологические и социологические следствия представления ценностей как динамических запретов. – СПб.: 2008. – 100 с.
10. Muminova D.A. THE MAIN STEPS AND MAINTENANCE OF IMPROVING HABITS OF READING ON THE ELEMENTARY SCHOOL FORMS //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 5. – С. 407-414.

